XALQ ERTAKLARIDA KVAZIETALONLAR: MILLIY TAFAKKUR VA MADANIY QADRIYATLAR

Azizova Nafisa Orifjon qizi

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

azizovanafisa1002@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq ertaklarida kvazietalonlarning qo‘llanilishi, ularning milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek xalq ertaklari misolida kvazietalonlarning lingvistik, semantik va lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kvazietalonlar orqali xalqning dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va milliy-madaniy xususiyatlarining namoyon bo‘lishi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: kvazietalon, xalq ertaklari, milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar, lingvomadaniyatshunoslik, qiyosiy tahlil, milliy dunyoqarash.

Annotation: This article examines the use of quasi-standards in folk tales and their role in expressing national thinking and cultural values. It also provides a comparative analysis of the linguistic, semantic, and linguocultural features of quasi-standards, drawing on examples from English and Uzbek folk tales. The study explores how quasi-standards reflect a people's worldview, moral norms, and national and cultural characteristics.

Key words: quasi-standard, folk tales, national thinking, cultural values, linguoculturology, comparative analysis, national worldview.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование квазиэталонов в народных сказках и их роль в выражении национального мышления и культурных ценностей. На материале английских и узбекских народных сказок проводится сравнительный анализ лингвистических, семантических и лингвокультурологических особенностей квазиэталонов. В ходе исследования изучается, как квазиэталоны отражают мировоззрение народа, моральные нормы, а также национально-культурные особенности.

Ключевые слова: квазиэталон, народные сказки, национальное мышление, культурные ценности, лингвокультурология, сравнительный анализ, национальное мировоззрение.

Xalq ertaklari millatning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va madaniy qadriyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi muhim folklor janridir. Ularda xalqning yaxshilik va yomonlik, adolat va nohaqlik, jasorat va qo‘rqoqlik, donolik va nodonlik haqidagi tasavvurlari turli qahramonlar, hayvonlar, sehrli buyumlar hamda voqealar orqali ifodalanadi. Shu sababli xalq ertaklarini lingvomadaniy jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ingliz va o‘zbek xalq ertaklari mazmuni, obrazlar tizimi va badiiy ifoda vositalari jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu bilan birga, har ikki xalq ertaklarida qahramonning sinovlardan o‘tishi, yaxshilikning yomonlik ustidan g‘alaba qozonishi va axloqiy xulosaning ilgari surilishi kabi umumiy motivlar uchraydi. Ingliz va o‘zbek folkloridagi obrazlarni qiyosiy o‘rganish ushbu o‘xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Bu masala ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridagi obrazlar hamda hikoya qilish usullarini qiyoslagan tadqiqotlarda ham yoritilgan1.

Tilshunoslikda etalon tushunchasi muayyan xususiyatni baholash yoki tavsiflash uchun namuna, mezon yoxud qiyoslash asosi vazifasini bajaruvchi obraz bilan bog‘liq. Lingvomadaniy nuqtayi nazardan, bunday obrazlar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari va umumiy tasavvurlari bilan aloqador bo‘lishi mumkin.

Kvazietalon termini dastlab rus tilshunosi V.N.Teliya tomonidan “Rus frazeologiyasi: semantik-pragmatik va lingvomadaniy jihatlar” nomli asarida qo‘llanilgan. V.N.Teliya kvazietalon deganda referentga (ifodalangan predmetga) emas, balki mazkur referent obrazi orqali ifodalangan, insonning muayyan sifatlari haqidagi tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lgan biror g‘oyaga ishora qiluvchi til birligini

*1*Телия В.Н. Русская фразеология: семантико-прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 284 с.

tushunishni taklif etadi[2]. G.V.Tokarev kvazietalon haqida shunday deydi: “Kvazietalonni madaniy axborotni ixcham va mazmunli tarzda ifodalovchi lingvomadaniy vositalar qatoriga kiritish lozim. Ular madaniy jihatdan eng kuchli yuklangan til tuzilmalari bo‘lib, tilning milliy o‘ziga xosligini ifodalaydi. Aniqroq aytganda, kvazietalon - lingvomadaniy darajaga mansub birlikdir”[3].

Ingliz xalq ertaklari orasida *Merlin* obrazi ertak matnida faol qo‘llaniladi va kvazietalon xususiyatiga ega obraz hisoblanadi. “The history of Tom Thumb” ertagida Merlin butun dunyodagi eng mohir sehrgar sifatida tasvirlanadi: *“In the days of the great Prince Arthur, there lived a mighty magician, called* ***Merlin, the most learned and skilful enchanter the world has ever seen****”* (English fairy tales. “The history of Tom Thumb” 145-p.). Ingliz xalq ertaklarida *Merlin* obrazi yuksak bilim, sehrli qobiliyat va g‘ayritabiiy kuch timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, *Wise Woman* (dono ayol) kvazietaloni “The Buried Moon”, “A Pottle of Brains” va “The Lambton Worm” kabi ertaklarda donolik, bashorat qilish qobiliyati hamda teran tafakkur namunasi sifatida uchraydi. Mazkur obraz orqali hayotiy jumboqlarga yechim topuvchi, keng bilim va tajribaga ega bo‘lgan, shuningdek, qahramonlarga murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi shaxs tasvirlanadi. Shu jihatdan, *Wise Woman* obrazi ingliz xalq ertaklarida aql-zakovat va donolikning badiiy ifodasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

O‘zbek xalq ertaklarida ingliz ertaklaridagi Merlin obraziga o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan *Razzoq sehrgar* obrazi ham uchraydi. Xususan, “Tarasha oyim” ertagida Razzoq sehrgar sehrgarlik san’atining eng yuqori darajasiga erishgan, sehrgarlarning piri va murakkab muammolarni hal etishga qodir shaxs sifatida tasvirlanadi. Shu jihatdan, Razzoq sehrgar kvazietaloni xalq tasavvurida yuksak sehrli qudrat, favqulodda bilim va mushkul vaziyatlardan chiqish yo‘lini topa oladigan donishmandlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur obraz ingliz xalq ertaklaridagi Merlin obrazi bilan qiyoslanganda, har ikki obrazning g‘ayritabiiy kuch

2 Телия В. Н. Русская фразеология: семантико-прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – С.245.
3 Токарев Г. В. Квазиэталон как элемент лингвокультуры // Известия Тульского государственного университета. Гуманитарные науки. – Тула, 2013. – № 1. – С.271.

va bilim sohibi sifatidagi umumiy jihatlari ko‘zga tashlanadi. Biroq ularning mazmuniy talqini har bir xalqning milliy-madaniy qarashlari va folklor an’analari bilan chambarchas bog‘liq: *“U podsholikka sehru, jodugarlikning piri Razzoq sehrgarni yuborasiz. Qanday hiyla ishlatsa ham, o‘sha bajarib keladi”* (Yonar daryo. “Tarasha oyim”, 66-b.).

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, kvazietalonlarni o‘rganishda har bir obrazning matndagi vazifasi, semantik xususiyatlari va madaniy mazmunini hisobga olish zarur. Chunki ramziy obraz bilan kvazietalon tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ular aynan bir xil hodisa emas. Shu bois kvazietalonlarning xususiyatlarini aniqlashda nazariy mezonlarga va ertak matnlaridagi aniq dalillarga tayanish lozim. Umuman olganda, xalq ertaklaridagi kvazietalonlarni lingvomadaniy jihatdan o‘rganish ingliz va o‘zbek xalqlarining dunyoqarashi, qadriyatlari hamda axloqiy me’yorlarini qiyosiy anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Телия В.Н. Русская фразеология: семантико-прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 284 с.

Ковшова М.Л., Гудков Д.Б. Словарь лингвокультурологических терминов. – М. : Гнозис, 2017. – 192 с.

Токарев Г.В. Квазиэталон как элемент лингвокультуры // Известия Тульского государственного университета. Гуманитарные науки. – Тула, 2013. – № 1. – С.271.

Tokarev G.V. Pragmatics of Quasi-Symbol // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 2. Языкознание. – 2021. – Т. 20, № 3. – С. 142-150.

Javlieva S. Folk Tales and Oral Traditions: A Comparative Study of Storytelling Techniques // Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Vol. 4, No. 5. – P. 70-72. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.11213098.

Tilavoldiyeva S., Ismoilova Sh. A Comparative Depiction of Figurative Images in English and Uzbek Literary Works // Yosh olimlar. – 2025. – Vol. 3, No. 19. – P. 119-123. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15583737.

Jacobs J. English Fairy Tales. – London: David Nutt, 1890.